

*Ismoilov Narzulla Tolliboyevich,
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish (tarix)
mutaxassisligi magistranti
Chirchiq sh, O‘zbekiston*

XIX ASRDA BUYUK BRITANIYANING TASHQI SIYOSATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asr davomida Buyuk Britaniyaning tashqi siyosati va uning global mustamlakachilik strategiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayniqsa Great Game (Buyuk o‘yin) doirasida Britaniya va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi raqobat, Hindiston va Markaziy Osiyo yo‘nalishidagi ekspansionistik siyosat yoritilgan. Shuningdek, Hindistonning to‘liq mustamlakaga aylanish jarayoni, 1857–1858-yillardagi “Sipohiyalar qo‘zg‘oloni” va Sharqiy Hindiston kompaniyasi faoliyati tahlil qilinadi. Maqolada Britaniyaning Xitoyga qarshi Afyun urushlari hamda Qrim urushi (1853–1856) kabi voqealar ham tashqi siyosatning muhim omillari sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Buyuk Britaniya tashqi siyosati XIX asrda global iqtisodiy va geosiyosiy ustunlikni ta’minlashga qaratilganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Buyuk o‘yin, mustamlakachilik, sanoat inqilobi, global imperiya, Hindiston mustamlakasi.

*Исмоилов Нарзулла Толлибоевич
Магистрант по направлению «Методика преподавания
социально-гуманитарных наук (история)»,
Чирчикский государственный
педагогический университет,
г. Чирчик, Узбекистан*

ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ВЕЛИКОБРИТАНИИ В XIX ВЕКЕ

Аннотация

В данной статье анализируется внешняя политика Великобритании и её глобальная колониальная стратегия на протяжении XIX века. В исследовании особое внимание уделяется соперничеству между Британской и Российской империями в рамках «Большой игры» (Great Game), а также экспансионистской политике в направлении Индии и Центральной Азии. Также рассматриваются процесс полной колонизации Индии, «Восстание сипаев» 1857–1858 годов и деятельность Ост-Индской компании. В качестве важных факторов внешней политики анализируются такие события, как Опиумные войны против Китая и Крымская война (1853–1856). Результаты исследования показывают, что внешняя политика Великобритании в XIX веке была направлена на обеспечение глобального экономического и геополитического превосходства.

Ключевые слова: Большая игра, колониализм, промышленная революция, глобальная империя, колонизация Индии.

Ismoilov Narzulla Tolliboyevich
Master's student in Social Sciences
and Humanities Education (History),
Chirchik State Pedagogical University,
Chirchik, Uzbekistan

BRITISH FOREIGN POLICY IN THE 19TH CENTURY

Abstract

This article analyzes Great Britain's foreign policy and its global colonial strategy throughout the 19th century. The study specifically highlights the rivalry between the British and Russian Empires within the framework of the "Great Game," as well as expansionist policies toward India and Central Asia. Furthermore, it examines the process of India's complete colonization, the Indian Rebellion of 1857–1858 (the Sepoy Mutiny), and the activities of the East India Company. Significant foreign policy events, such as the Opium Wars against China and the Crimean War (1853–1856), are also analyzed as key factors of British diplomacy. The research findings demonstrate that British foreign policy in the 19th century was strategically aimed at ensuring global economic and geopolitical dominance.

Keywords: Great Game, colonialism, Industrial Revolution, global empire, colonization of India.

Kirish

XIX asr Buyuk Britaniya tarixida tub burilishlar davri bo'lib, ushbu davr mamlakatning global siyosiy, iqtisodiy va harbiy ustunlikka erishishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida boshlangan Sanoat inqilobi natijasida ishlab chiqarish hajmining keskin ortishi, texnologik yangiliklarning joriy etilishi hamda kapitalistik munosabatlarning chuqurlashuvi Buyuk Britaniyaning tashqi siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Sanoat taraqqiyoti mamlakatni yangi xomashyo manbalari va keng savdo bozorlariga ehtiyoj sezishga majbur etdi, bu esa tashqi siyosatda ekspansionistik va mustamlakachilik yo'nalishining ustuvorligini belgilab berdi. Mazkur davrda Buyuk Britaniya jahon iqtisodiyotining yetakchi markaziga aylandi. Tarixiy manbalarga ko'ra, XIX asr o'rtalariga kelib, mamlakat dunyo sanoat ishlab chiqarishining qariyb 30–40 foizini nazorat qilgan va xalqaro savdoda asosiy rol o'ynagan. Bu esa uning tashqi siyosatini “erkin savdo” tamoyillariga asoslashga imkon berdi. Ayniqsa, 1846-yilda “Don qonunlari”ning bekor qilinishi Buyuk

Britaniyaning ochiq iqtisodiy siyosatga o'tganligini ko'rsatadi va bu jarayon uning global iqtisodiy ta'sirini yanada mustahkamladi. XIX asr boshlarida Napoleon urushlari Buyuk Britaniya tashqi siyosatining shakllanishida muhim omil bo'ldi. Ushbu urushlarda erishilgan g'alaba mamlakatga dengiz ustunligini ta'minlab, Yevropada kuchlar muvozanatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynash imkonini berdi. Ayniqsa, 1815-yildagi Vena kongressi natijasida Buyuk Britaniya Yevropa diplomatiyasida asosiy arboblardan biriga aylandi va "kuchlar muvozanati" siyosatini ilgari surdi. Hindiston, Kanada, Avstraliya kabi hududlar uning strategik tayanch nuqtalariga aylandi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki harbiy-strategik ustunlikni ta'minlashga ham xizmat qildi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniya tashqi siyosatida boshqa yirik davlatlar bilan geosiyosiy raqobat muhim o'rin egalladi. Umuman olganda, XIX asrda Buyuk Britaniyaning tashqi siyosati iqtisodiy manfaatlar, harbiy ustunlik va diplomatik muvozanatni ta'minlashga qaratilgan murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada aynan shu jihatlar ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinib, Buyuk Britaniyaning jahon siyosatidagi o'rni va ahamiyati yoritib beriladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi

XIX asrda Buyuk Britaniyaning tashqi siyosati va uning mustamlakachilik ekspansiyasi masalasi jahon tarixshunosligida keng o'rganilgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu mavzu turli olimlar tomonidan siyosiy, iqtisodiy va geosiyosiy jihatlardan kompleks tarzda tahlil qilingan. Ergashev Sh. (2015) o'zining "Jahon tarixi (Yangi davr 1800–1918 yillar)" asarida XIX asrning umumiy tarixiy jarayonlarini yoritib, Buyuk Britaniyaning tashqi siyosati va uning mustamlakachilik tizimini jahon siyosiy muvozanati kontekstida ko'rib chiqadi. Ushbu asarda Britaniya imperiyasining kuchayishi va Yevropa davlatlari o'rtasidagi raqobatning umumiy yo'nalishlari ilmiy asosda tahlil etiladi. Fursov K. A., (2009) "Ikki imperiya. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Rossiya Turkistoni va Britaniya Hindistonidagi mustamlakachi davlatlarning iqtisodiy siyosati" ilmiy tadqiqotida Britaniya

imperiyasi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy raqobatni qiyosiy o'rganadi. Muallif Markaziy Osiyo va Britaniya Hindistoni misolida mustamlakachilik siyosatining iqtisodiy mexanizmlarini ochib beradi hamda ikki imperiyaning mintaqaviy strategiyalarini tahlil qiladi.

Butakov A. M. va Tizengauzen A. E., (2002) "Afyun urushlari: 1840–1842, 1856–1858, 1859 va 1860 yillarda Xitoyga qarshi Yevropa urushlarining sharhi" asarida Afyun urushlari chuqur ilmiy tahlil qilinib, Buyuk Britaniyaning Xitoyga nisbatan olib borgan iqtisodiy va harbiy bosim siyosati ochib beriladi. Ushbu tadqiqot Britaniya tashqi siyosatining Sharq mamlakatlariga nisbatan agressiv xarakterini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Vasilyev K., (2004) "Buyuk Britaniya tarixi" asarida Britaniya tarixining umumiy rivojlanish bosqichlari, xususan XIX asrda uning dengiz kuchi va global imperiyaga aylanish jarayoni yoritiladi. Bu asar imperiyaning ichki va tashqi siyosiy asoslarini tushunishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Xidoyatov G. A., (1981) "Buyuk Britaniyaning Markaziy Osiyoga ekspansiyasi" tadqiqotida Great Game (Buyuk o'yin) doirasida Britaniya imperiyasining Markaziy Osiyodagi ekspansionistik siyosati chuqur tahlil qilinadi. Muallif Britaniyaning Afg'oniston, Buxoro va Xiva xonliklariga nisbatan yuritgan siyosatini geosiyosiy raqobat nuqtai nazaridan yoritadi. Smirnova L. M., tadqiqotlarida XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda Rossiya va Britaniya o'rtasidagi siyosiy va harbiy raqobat, kuchlar muvozanati va hududiy manfaatlar kurashi tahlil qilinadi. Bu ishlar mintaqaviy geosiyosatning murakkabligini ochib berishga xizmat qiladi. Kulik L. V., (2023) "Hindiston va Buyuk Britaniya ikki tomonlama munosabatlar ko'zgidagi: tarix va zamonaviylik" monografiyasida Hindiston va Buyuk Britaniya o'rtasidagi mustamlakachilik munosabatlari, iqtisodiy ekspluatatsiya va siyosiy boshqaruv tizimi zamonaviy ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Muallif Hindistonning Britaniya imperiyasi tarkibidagi o'rnini tarixiy va iqtisodiy jihatdan keng yoritadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar Buyuk Britaniyaning XIX asrdagi tashqi siyosatini turli jihatlardan yoritgan bo‘lib, uning mustamlakachilik tizimi, iqtisodiy manfaatlari va geosiyosiy raqobati chuqur o‘rganilgan. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotlar muammoning ayrim jihatlarini alohida ko‘rib chiqqan bo‘lsa-da, ularni yagona tizimli yondashuv asosida kompleks tahlil qilish ilmiy jihatdan dolzarbligicha qolmoqda.

Asosiy qism

1815-yilda Napoleon urushlari yakunida Napoleon Bonapart rahbarligidagi Fransiyaning mag‘lubiyatga uchrashi natijasida Buyuk Britaniya mustamlakachilik sohasida asosiy raqibidan xalos bo‘ldi. Natijada Britaniya mustamlakachilari yuzaga kelgan qulay vaziyatdan keng foydalandilar. Ular tahdidlar va pora berish, urushlar va diplomatik usullar, hatto qotillik va firibgarlik kabi vositalardan foydalanib, o‘z ta‘sir doirasini kengaytirdilar. Sharqiy Hindiston kompaniyasi 1840-yillarning oxirlariga kelib Hindistonni zabt etishni deyarli yakunladi. O‘sha davrda Hindiston aholisi qariyb 200 million kishini tashkil etgan. 1813-yilda Ost-Hind kompaniyasiga tegishli bo‘lgan Hindiston bilan savdo monopoliyasi bekor qilindi. 1833-yilgi parlament akti esa kompaniyani faqat ma‘muriy va harbiy organ sifatida saqlab qoldi. 1819-yilda Buyuk Britaniya Singapurni egalladi, 1839-yilda esa Aden shahrini bosib oldi[1]. Bu hudud Arabiston yarim orolidagi janubiy qabilalarni bo‘ysundirish uchun muhim tayanch punktga aylandi. Shu bilan birga, Xitoy bozorini o‘zlashtirish yo‘lida ham keskin qadamlar tashlandi. 1842-yilgi Nankin shartnomasi ga binoan, Gonkong oroli Buyuk Britaniyaga “abadiy egalik” huquqi bilan topshirildi.

Ost-Hind kompaniyasining savdo monopoliyasining bekor qilinishi Hindiston iqtisodiy ekspluatatsiyasida yangi davrni boshlab berdi. Kompaniya o‘z daromadining katta qismini Buyuk Britaniyada ekzotik sharq mahsulotlarini sotish orqali qo‘lga kiritgan[7]. Savdo monopoliyasi bekor qilingach, ingliz fabrikalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar, xususan paxta matolari eksporti

keskin oshdi. 1820-yillarda bu eksport hajmi yiliga deyarli 2 million funt sterlingga yetdi. Ingliz paxta matolari tez orada qo‘l mehnatiga asoslangan Hindistonning yengil sanoatini tanazzulga uchratishga muvaffaq bo‘ldi. Qishloq hunarmandchiligining pasayishi, hatto ayrim hollarda butunlay yo‘qolib ketishi qishloq aholisini faqat qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanishga majbur etdi. Natijada Hindiston, Irlandiya singari, Buyuk Britaniya uchun oziq-ovqat va turli xil xom ashyo yetkazib beruvchi agrar koloniyaga aylandi. 1813-yildan keyin Sharqiy Hindiston kompaniyasining asosiy daromad manbai Xitoy choyi savdosi monopoliyasi bo‘lib qoldi[2]. Ushbu monopoliyaga kompaniya yana qariyb 20 yil davomida ega bo‘ldi. Kompaniya har yili taxminan 4 million funt sterlinglik choy savdosini amalga oshirgan bo‘lib, bu Kanton bozorida narxlarning oshishiga olib kelgan.

1840–1842-yillarda sodir bo‘lgan birinchi Afyun urushi Buyuk Britaniyaning Xitoy bozoriga arzon paxta mahsulotlarini olib kirish siyosati bilan chambarchas bog‘liq edi. Ushbu urush Xitoy aholisini Hindistonda yetishtirilgan afyunni sotib olishga majbur qilish maqsadida olib borildi. Aslida esa maqsad yanada kengroq bo‘lib, ingliz tovarlarining Xitoyga erkin kirib borishiga to‘sqinlik qilayotgan savdo cheklovlarini bartaraf etishdan iborat edi[3]. 1856–1860-yillarda yuz bergan ikkinchi Afyun urushi natijasida inglizlarning Yantszi daryosi havzasiga kirib borishi uchun imkoniyatlar kengaydi.

G‘arbiy Afrika qirg‘oqlari ham britaniyaliklar uchun katta iqtisodiy qiziqish uyg‘otdi. Bu hududlardan kakao, palma yog‘i va boshqa qimmatbaho mahsulotlar olib kelina boshlandi. Mahalliy aholi bilan savdo aloqalarida asosan spirtli ichimliklar va o‘qotar qurollar ayirboshlash vositasi sifatida xizmat qilgan. Keyinchalik bu hududlarda oltin konlarining topilishi 1900-yilgacha davom etgan hududiy bosib olish urushlariga sabab bo‘ldi. Afg‘oniston va ayniqsa Eron hududlarida ta‘sir o‘rnatish uchun kurash o‘zgaruvchan muvaffaqiyatlar bilan kechdi. Biroq savdo aloqalarining kengayishi hamda

Buyuk Britaniyaning ushbu mintaqadagi harbiy-siyosiy faolligi 1840–1860-yillarda ingliz ishlab chiqaruvchilari uchun yangi bozorlarning ochilishiga xizmat qildi. Buyuk Britaniyaning Yaqin Sharqdagi mavqeini mustahkamlashga intilishi uning Rossiya imperiyasi bilan munosabatlarining keskinlashuviga olib keldi. Bu ziddiyatlar oxir-oqibat to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy to‘qnashuvlarga sabab bo‘ldi. 1853–1856-yillarda bo‘lib o‘tgan Qrim urushi Buyuk Britaniya uchun muhim siyosiy natijalarni berdi. Xususan, Qora dengizni harbiy jihatdan zararsizlantirish to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi. Natijada Buyuk Britaniya bir muddat Rossiyaning bo‘g‘ozlar orqali O‘rta yer dengiziga chiqish xavfidan xalos bo‘ldi hamda O‘rta yer dengizining sharqiy qismida o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. XIX asr davomida Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik kengayishi izchil davom etdi. Napoleon urushlari yillarida Birlashgan Qirollik Hindiston va Afrikada o‘z hukmronligini sezilarli darajada kuchaytirdi. U Fransiyaning Afrikadagi ko‘plab mustamlakalarini, shuningdek Janubiy Afrika va Gollandiya mustamlakalarining bir qismini egallab oldi. Ushbu hududlarning aksariyati keyinchalik Buyuk Britaniya tasarrufida qolib, Fransiyaning mag‘lubiyati natijasida uning global ta’sir doirasi yanada kengaydi. 1852-yilda inglizlar Quyi Birmanni bosib oldilar. 1856-yilda esa ular Eronga qarshi urush boshladilar, biroq Hindistonda yuzaga kelgan qo‘zg‘olonlarni bostirish zarurati tufayli bu harbiy harakatlarni to‘xtatishga majbur bo‘ldilar. 1857–1859-yillarda yuz bergan Sipoy qo‘zg‘olonining qonga botirilishi Hindistonni to‘liq zabt etish jarayonini yakunladi. Bu jarayon aslida 1600-yilda Sharqiy Hindiston kompaniyasi tashkil etilgan davrdan boshlangan edi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniya Fransiya bilan hamkorlikda Xitoyga qarshi 1856–1860-yillardagi Ikkinchi afyun urushida ishtirok etdi, natijada Xitoyga noqulay shartlarga ega bo‘lgan tinchlik shartnomalari majburan qabul qildirildi.

Bosfor bo‘g‘ozi va Dardanel bo‘g‘ozi ustidan nazorat o‘rnatish istagi Buyuk Britaniyani Rossiya imperiyasi bilan qarama-qarshilikka olib keldi. Bu

ziddiyatlar 1853–1856-yillardagi Qrim urushiga sabab bo‘ldi. Ushbu urushda Buyuk Britaniyaning maqsadi nafaqat Rossiyaning Qora dengizdagi ta’sirini zaiflashtirish, balki uning geosiyosiy imkoniyatlarini cheklashdan iborat edi. Qrim urushi Britaniya uchun katta yo‘qotishlar bilan yakunlandi: taxminan 25 ming inson halok bo‘ldi va 50 million funt sterling miqdorida xarajat qilindi.

1869-yilda Suvaysh kanali ishga tushirildi. Ushbu kanal O‘rta yer dengizi bilan Qizil dengizni bog‘lab, yirik dengiz kemalari uchun yangi yo‘l ochdi. Buyuk Britaniya uchun kanal ustidan nazorat nihoyatda muhim edi, chunki u Yevropadan Hindistonga boradigan dengiz yo‘lini qariyb 10 ming kilometrga qisqartirdi. Britaniyaning Sharqiy Afrikadagi manfaatlarini esa Misrda paxta plantatsiyalarining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu ingliz to‘qimachilik sanoati uchun muhim xom ashyo manbai hisoblangan.

Buyuk Britaniya Misr iqtisodiyotiga katta miqdorda sarmoya kiritdi. 1875-yilga kelib Misrning Britaniyadan olgan qarzlari shu darajada ortdiki, u Suvaysh kanali kompaniyasidagi o‘z aksiyalarini sotishga majbur bo‘ldi[4]. Natijada aksiyalarning bir qismi Fransiya qo‘lida qolgan bo‘lsa, katta ulushi Buyuk Britaniya nazoratiga o‘tdi. 1882-yilga kelib esa Buyuk Britaniya amalda Misrni bosib oldi. Misrni egallash Buyuk Britaniyaga keyingi 70 yil davomida Suvaysh kanali orqali navigatsiyani nazorat qilish imkonini berdi. Britaniyaning Misrdagi harbiy mavjudligi 1952-yilgacha saqlanib qoldi, 1956-yilda esa Misr kanali ustidan to‘liq nazoratni qo‘lga kiritdi. Buyuk Britaniyaning Misr ustidan mustamlakachilik nazorati turli shakllarda amalga oshirildi. 1882-yilda ingliz qo‘shinlari tomonidan amalga oshirilgan harbiy ishg‘ol ochiq aralashuv orqali ro‘y berdi. Bu “yashirin qo‘shib olish” (ya’ni “jim qo‘shilish”) siyosati doirasida oldindan rejalashtirilgan harakat edi. London xalqaro kelishuvlarni, jumladan Konstantinopol konferensiyasi qarorlarini buzgan holda kuch ishlatish yo‘lini tanladi[1]. Natijada harbiy ishg‘ol Angliya–Misr munosabatlaridagi eng muhim ziddiyatli masalalardan biriga aylandi va bu ishg‘olning mustahkam huquqiy asosi mavjud emas edi.

XIX asrning 30-yillari oxiriga kelib Buyuk Britaniya Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan faol geosiyosiy strategiyani shakllantira boshladi. Bu jarayon Great Game (Buyuk o'yin)) doirasida, ya'ni Britaniya va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi keskin raqobat sharoitida yuzaga keldi. Britaniyaning asosiy maqsadi Hindistondagi mustamlakasini tashqi tahdidlardan, ayniqsa Rossiyaning janubga siljishidan himoya qilish edi. Britaniyalik sayyoh va diplomat Alexander Byorns o'z hisobotlarida Markaziy Osiyoda mustahkam tayanch punkt tashkil etish zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, bunday punkt nafaqat harbiy garnizon sifatida, balki ingliz tovarlari uchun tranzit-savdo markazi sifatida ham xizmat qilishi lozim edi. Burnes bu maqsad uchun eng qulay hudud sifatida Hirot shahrini ko'rsatgan. Hirot o'sha davrda strategik jihatdan nihoyatda muhim bo'lib, u orqali Buxoro, Xiva va Marv yo'nalishlariga boruvchi savdo va harbiy yo'llar kesishgan. 1837-yilda inglizlar "Hirotni forslar hujumidan himoya qilish" bahonasida mayor Todd boshchiligida harbiy otryad yuborib, ushbu hududni Markaziy Osiyodagi kengroq siyosiy va harbiy operatsiyalar uchun tayanch bazaga aylantirishga harakat qildilar. Shu davrda polkovnik Charles Stoddart Buxoroga yuborilib, amirni Angliya bilan harbiy ittifoq tuzishga ko'ndirishga urindi. 1839-yilda esa Artur Konolli Xivaga jo'natilib, uch o'zbek xonligini Rossiyaga qarshi ittifoqqa birlashtirish vazifasini oldi. Shuningdek, 1840-yilda kapitan James Abbott Xiva xoniga diplomatik missiya bilan yuborilib, Angliya bilan do'stona aloqalar o'rnatish va Rossiyaga qarshi kurashda yordam va'da qilingan[5]. Mazkur diplomatik va harbiy "tashriflar"ning asl maqsadi mintaqadagi turkman qabilalari bilan aloqalarni mustahkamlash va ularni Britaniya manfaatlari yo'lida ittifoqchiga aylantirishdan iborat edi. Biroq bu faoliyatlar ko'pincha muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Xususan, Stoddart va Konolli Buxoroda qatl etilgan bo'lib, bu voqea Britaniya siyosatining mintaqadagi murakkabligini yaqqol ko'rsatadi. 1838–1842-yillarda bo'lib o'tgan Birinchi ingliz-afg'on urushidagi mag'lubiyat

inglizlarning Markaziy Osiyodagi faoliyatiga jiddiy zarba berdi. Shunga qaramay, Britaniya bu hudud bilan aloqalarni to'xtatmadi, balki yangi strategiyalarni qo'llay boshladi. Endilikda agentlar asosan Eron orqali yuborila boshlandi. 1843-yilda mayor Josef Wolf Buxoroga jo'natilib, amirlikning siyosiy va harbiy holatini o'rganish hamda ta'sir o'rnatish vazifasini oldi. XIX asr o'rtalariga kelib Britaniya Hindiston hududida o'z pozitsiyalarini yanada mustahkamladi. 1844-yilda Hindistonga yangi general-gubernator Genri Gardinge tayinlanib, Panjobni egallash siyosatini boshladi. 1846-yilda ingliz qo'shinlari sikhlar ustidan g'alaba qozonib, Lahorni egalladi. 1849-yilda esa Lord Dalhousie tomonidan Panjob to'liq anneksiya qilindi[6]. 1856-yilda Charles Canning boshchiligida inglizlar Eron bilan urush olib borib, Bushir va Mohammera shaharlarini egalladi va Eronni sulh tuzishga majbur qildi. Biroq 1857–1858-yillarda yuz bergan “Sipohiyalar qo'zg'oloni” Britaniya mustamlakachilik tizimining zaif tomonlarini ochib berdi. Natijada 1858-yil 2-avgustda Britaniya parlamenti “Hindiston to'g'risida qonun”ni qabul qildi. Ushbu qonunga ko'ra, Sharqiy Hindiston kompaniyasi tugatilib, Hindiston bevosita Britaniya tojiga bo'ysundirildi[7]. Bu o'zgarish Hindistonni xususiy kompaniya boshqaruvidan chiqarib, uni to'liq davlat mustamlakasiga aylantirdi hamda Britaniya imperiyasining global hukmronligini yanada mustahkamladi.

Tahlil va natijalar

Mazkur voqealar Rossiya imperiyasi tashqi siyosat doiralarini ham jiddiy hushyorlikka undadi. Aynan shu davrda Hindistondan Markaziy Osiyo hududlariga, xususan Toshkent tomon inglizlarga qarshi kurashda yordam so'rab elchilar yuborilgani ma'lum. Garchi bu murojaatlar diplomatik tarzda rad etilgan bo'lsa-da, ular Rossiya siyosiy doiralari tomonidan diqqat bilan o'rganildi va mintaqadagi vaziyatga strategik baho berilishiga turtki bo'ldi. Qrim urushi hamda Hindistondagi qo'zg'olon voqealari Markaziy Osiyoda rus-ingliz munosabatlarida muhim burilish nuqtasiga aylandi. Bu hodisalar ikki imperiya o'rtasidagi qarama-qarshilikni yanada keskinlashtirib, Great Game

(Buyuk o‘yin) doirasidagi raqobatni yangi bosqichga olib chiqdi. 1881-yilda Rossiya tashqi ishlar vaziri Nikolay Girs tomonidan Angliyadagi elchiga yuborilgan ko‘rsatmada quyidagicha fikr bildirilgan: Qrim urushi Rossiya va Angliya o‘rtasidagi munosabatlarda tub burilish yasab, Rossiyani Britaniya ta’siriga qarshi samarali strategiyalar izlashga majbur etdi[8]. Ushbu strategiya nafaqat dengizdagi ustunlikka qarshi choralarni, balki Britaniyaning boshqa davlatlar bilan Rossiyaga qarshi ittifoq tuzish ehtimoliga qarshi ham qaratilgan bo‘lishi kerak edi. Aynan shu omillar Rossiyaning Markaziy Osiyo yo‘nalishida faol ekspansiya siyosatini boshlashiga asos bo‘ldi.

Xulosa

XIX asr Buyuk Britaniya tashqi siyosati jahon tarixida eng murakkab va keng qamrovli geosiyosiy jarayonlardan biri sifatida baholanadi. Ushbu davrda sanoat inqilobi natijasida shakllangan iqtisodiy qudrat, dengiz flotining ustunligi hamda kapitalistik ishlab chiqarish tizimining rivojlanishi Britaniya imperiyasining global maydondagi ta’sirini keskin kuchaytirdi. Natijada Buyuk Britaniya dunyodagi eng yirik mustamlakachilik imperiyasiga aylanib, xalqaro siyosat va iqtisodiy munosabatlarni belgilovchi asosiy kuchlardan biri bo‘lib qoldi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, XIX asr davomida Britaniya tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishi strategik hududlarni egallash, savdo yo‘llarini nazorat qilish hamda xomashyo manbalariga ega bo‘lishga qaratilgan edi. Ayniqsa Hindiston, Xitoy, Afrika va Markaziy Osiyo mintaqalari Britaniya imperiyasi uchun ustuvor ahamiyat kasb etdi. Great Game (Buyuk o‘yin) doirasida Rossiya imperiyasi bilan yuzaga kelgan keskin raqobat esa Markaziy Osiyoda geosiyosiy kuchlar muvozanatini shakllantirgan asosiy omillardan biri bo‘ldi. Hindiston misolida Britaniya mustamlakachilik tizimi eng to‘liq shaklda namoyon bo‘ldi. “Sipohiyar qo‘zg‘oloni” ning bostirilishi va Sharqiy Hindiston kompaniyasining tugatilishi natijasida Hindiston bevosita Britaniya tojining boshqaruviga o‘tkazildi. Bu esa mustamlaka boshqaruvining xususiy kompaniya tizimidan davlat boshqaruviga o‘tganini anglatadi va Britaniya imperiyasining

siyosiy markazlashuvini kuchaytirdi. Shuningdek, Xitoyga qarshi olib borilgan Afyun urushlari, Qrim urushi hamda Suvaysh kanali ustidan nazorat o‘rnatilishi Britaniya tashqi siyosatining global miqyosda iqtisodiy manfaatlarga asoslanganligini yaqqol ko‘rsatadi. Ushbu jarayonlar Britaniya imperiyasining nafaqat harbiy kuchga, balki iqtisodiy bosim va diplomatik ustunlikka tayangan holda harakat qilganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, XIX asrda Buyuk Britaniya tashqi siyosati mustamlakachilik ekspansiyasi, iqtisodiy manfaatlar va strategik geosiyosiy raqobatning uyg‘unlashgan tizimi sifatida shakllangan. Ushbu siyosat natijasida Britaniya imperiyasi jahon siyosiy xaritasida yetakchi o‘rinni egalladi va xalqaro munosabatlar tizimining rivojlanishiga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi. Shu bois XIX asr Buyuk Britaniya tarixida global hukmronlikning eng yuqori cho‘qqisi sifatida baholanadi va uning tashqi siyosati bugungi geosiyosiy jarayonlarni tushunishda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergashev Sh., Jahon tarixi (Yangi davr 1800-1918 yillar) // Toshkent.: “O‘zbekiston” 2015. B, 143-160.

2. Фурсов К. А., Две империи. Экономическая политика колониальных держав в Русском Туркестане и Британской Индии во второй половине XIX - начале XX в. (научный доклад). - М.: Институт экономики РАН, 2009

3. Бутаков А.М., Тизенгаузен А.Е. Опиумные войны. Обзор войн европейцев против Китая в 1840-1842, 1856-1858, 1859 и 1860 годах. - М.: АСТ, 2002. - 400 с.

4. Васильев К., История Великобритании // Москва, Авалонь, Азбука-классика, 2004 г.- 128 с.

5. Хидоятлов Г.А., Британская экспансия в Средней Азии. Ташкент, 1981.

6. Смирнова Л.М., Англо-русское соперничество в Центральной Азии в 70-90-е годы XIX века

7. Л. В. Кулик., Индия и Британия в зеркале двусторонних отношений. История и современность: монография / Ин-т востоковедения РАН; [отв. ред.Т. Л. Шаумян]. — Москва: ИВ РАН, 2023. — 424 с.

8. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/buyuk-britaniyaning-tashqi-siyosati/>